



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

3/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



3/2025

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Zikrillayev G'N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Istiqolol va tilshunoslik metodologiyasi	3
Yuldasheva D.N., Hojiyeva S.H.	Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy-madaniy xususiyatlarning fonopoetik ifodasi	19
Qurbonova Z.A.	Function of color lexical words, their semantic meaning and translation (in the example of the concepts "white" and "black")	25
Safarova M.Z.	Buxoro toponimiyasida miqdor ifodalovchi so'z asosli etnotoponimlarning o'rni	30
Sulaymonova M.Sh.	Metaforaning jahon adabiyotida o'rganilish tarixi	35
Рузиева М.Х.	Проявление эпитета в виде многозначных прилагательных	41
Джафарова Д.И.	Вербал ва новербал алоқа муносабатларининг таржима жараёнида таржима қилиш муаммолари	46
Toshtemirova S.	Colour naming: semantics of the colour red in english	51
Tojiyeva K.N.	Koreys tilida (Janubiy Koreya) iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarning genetik tahlili	55
To'rayeva U.E.	Tilning madaniy normalar, qadriyatlar va an'analarni uzatishdagi roli	61
Soibova G.B.	Lingvokulturologiya tilshunoslikning bo'limi sifatida	66
Sobirova N.G'.	Qoidalarga asoslangan imlo tekshirish usullari	70
Bozorov Z.A.	"Sog'lik" konsepti asosida shakllangan maqollar tadqiqi	76
Davronova Z.B.	Modeling language activity as a scientific text tool	80
Ziyoyeva D.A.	Paradigm in linguistics: a scientific overview	85
Yusupova D.Y.	Adabiy manbalarda qimmatbaho tosh nomlari	89
Ermetova J.I., Xo'sinova Z.X.	The linguacultural exploration of metaphors and revealing their cultural values through human character expressions	93
Xamidova M.H.	Fransuz va o'zbek tillarida metonimlarning lingvomadaniy xususiyatlari	97
Usmonova U.B.	Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda nutqiy aktlarning faollashuvi	103
Usmonov A.Q.	Muloqot jarayonida kulgi uyg'otuvchi vositalar va birliklar	107
Ubaydullayeva M.O'.	Frazologik birliklarning ma'no, grammatik va funksional jihatlar	111
Asadov T.H.	Ot va sifat turkumidagi oraliq so'zlarning ayrim funksional-semantik tabiati xususida	118

OT VA SIFAT TURKUMIDAGI ORALIQ SO'ZLARNING AYRIM FUNKSIONAL-
SEMANTIK TABIATI XUSUSIDA

Asadov To'liqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti,
O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.n.
t.h.asadov@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'z turkumlari borasida tadqiqotlar olib borgan olimlar e'tirof etilib, ikki va undan ortiq so'z turkumida ham tadqiq etiladigan oraliq so'zlar, jumladan, ot-sifat so'zlarning funksional-semantik tabiati, ushbu so'zlarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi ifodasi, ot-sifat orasidagi so'zlarning turkumlilikka munosabati borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Keltirilgan nazariy ma'lumotlar lug'atdan olingan misollar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: so'z turkumi, semantik, morfologik, sintaktik mezon, oraliq so'z, ot-sifat so'z, predmetlik va belgi-xususiyat, ko'pmahallilik, polifunksiyanalilik, omonimiya.

НА ОПРЕДЕЛЕННУЮ ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКУЮ ПРИРОДУ
ПРОМЕЖУТОЧНЫХ СЛОВ В КАТЕГОРИИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО И
ПРИЛАГАТЕЛЬНОГО

Аннотация. В данной статье отмечены ученые, проводившие исследования по категориям слов, и даны комментарии о функционально-семантической природе промежуточных слов, изучаемых в двух и более категориях слов, в том числе о выражении этих слов в "толковом словаре узбекского языка", об отношении слов между существительными и прилагательными к категории. сделано. Приведенные теоретические данные объясняются примерами из словаря.

Ключевые слова: категория слова, семантический, морфологический, синтаксический критерий, промежуточное слово, существительное-прилагательное, подлежащее и знак-признак, многозначность, полифункциональность, омонимия.

ON THE FUNCTIONAL-SEMANTIC NATURE OF SOME INTERMEDIATE WORDS IN THE
GROUP OF NOUNS AND ADJECTIVES

Abstract. This article acknowledges the scholars who have conducted research on word classes and presents opinions on the functional-semantic nature of intermediate words, including noun-adjective words, which are studied in two or more word classes, the expression of these words in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language", and the relationship of words between nouns and adjectives to class. The theoretical information presented is illustrated with examples taken from the dictionary.

Keywords: word category, semantic, morphological, syntactic criterion, intermediate word, noun-adjective word, subject and sign-property, plurality, polyphony, homonymy.

Kirish. Barcha tillar so'zlari o'zining grammatik tabiati, semantik xususiyatiga qarab turlicha guruhlariga (kategoriyalarga) bo'linadi. Grammatik qurilishi har xil bo'lgan tillardagi so'zlar semantik, grammatik, qo'llanish doirasi, o'zaro birikishi doim ham uyg'un bo'lavermasligi tabiiy. Asosiysi, so'zlarni turkumlarga ajratishda tillar uchun umumiy sanalgan yagona bir qonuniyat ham mavjud emas. Muayyan bir tilda so'zlarni turkumlash shu tildagi so'zlarning o'ziga xos ma'nosi, grammatik xususiyati, so'z yasash tizimi va so'zlarning o'zaro birikish qobiliyati asosida ishlab chiqilishi lozimki, hatto qardosh tillar oilasida ham so'zlarni turkumlashda qandaydir farqlanishlar sezilishi mumkin holat sanaladi[1,5].

XX asr davomida o'zbek tilshunosligida so'z turkumlari va ular bilan bog'liq hodisalar A.Fitrat, U.Tursunov, F.Kamol, A.G'ulomov, S.Fuzailov,

G'.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, R.Qong'urov, A.Muxtorov, M.Mirtojiyev, M.Sodiqova, A.Hojiyev, H.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, G'.Zikrillayev, O.Bozorov, R.Rasulovlarning tadqiqotlarini; XX asr oxiri XIX asr boshlarida esa I.Madrahimov, J.Eltazarov, B.Mengliyev, Sh.Shahobiddinova, Z.Isoqov, A.Pardayev va boshqa olimlar izlanishlarini alohida ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda ham nomlari zikr etilgan olimlarning izdoshlari, yangi avlod vakillari so'z turkumlari va ular bilan bog'liq nazariy masalalar tadqiq borasida ilmiy izlanishlarni davom ettirib kelmoqda.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumi va uning tashkil etuvchisini ta'riflash, so'z turkumlarini ajratishning mantiqiy, lisoniy mezonlarini aniqlash bo'yicha katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Har bir so'z turkumining turkona lisoniy talqini, boshqa luG'aviy hamda grammatik kategoriyalar bilan semantik-funksional o'xshashligi va farqlari bo'yicha asosli yechimlarga kelindi.

Tilshunoslikda ot (predmetlik) va sifat (belgi-xususiyat) ma'nolarining o'zaro munosabati substantivatsiya, adyektivatsiya, pronominalizatsiya, adverbializatsiya hodisalari nuqtayi nazardan ancha o'rganilgan. Ma'lumki, borliq va tabiatga, til va tafakkurda ham predmetlik va belgi-xususiyat doimo uyg'un (sinkret) yashaydi, doimo biri ikkinchisini eslatib turadi. Sharq va g'arb faylasuflarining qarashlariga ko'ra predmetlik va belgi-xususiyat doimo yonma-yon holda mavjud bo'lib, hech vaqt ayro-ayro tadqiq etilmaganligi (ya'ni: predmetlik – "majmuayi asmo va sifot", sifat – "mavjudotning bir tomoni, qirrasini, belgi-xususiyatini") ta'kidlanib kelinadi. Tilshunos olim H.G'.Ne'matov ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan N.Shirinovaning "O'zbek tilida predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolarini farqlash vositalari" nomli tadqiqotida xuddi shu masala borasida fikr yuritilgan. Ishda borliq va tilda, ong va tafakkurda predmetlik va belgi-xususiyat tushunchalari hamda predmetlik va belgi-xususiyat tushunchalarining leksik, leksik-semantik, leksik-derivatsion, morfologik, sintaktik usullari, predmetlik va belgi-xususiyatlarni o'zaro farqlovchi vositalar tadqiq etilgan [14]. Tadqiqotchi bu borada, ya'ni so'z turkumlarida sinkret holda keladigan predmetlik va belgi-xususiyat ma'nosi haqida shunday yozadi: "Hozirgi o'zbek tilshunosligida so'z turkumlari hamda so'z/forma yasashning sintetik usullari tasnif va tavsiflaridagi qator munozaralar lisoniy birliklarda predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolari farqlanishining gradual munosabatlarida turganligini hisobga olmaslik natijasida ularni sirasidan uzib, talqin-u tahlil etish oqibatidir [14,18]."

Ma'lumki, tilshunoslik nazariyasida so'zlarni turkumlashtirish (kategoriyalashtirish) da semantik, morfologik, sintaktik mezonlarga amal qilish ommalashgan. Jahon tilshunosligi, turkologiya, o'zbek tilshunosligida so'zlarni turkumlashda ayrim tilshunoslar so'zning leksik ma'nosini yetakchi qilib olsa, boshqalari so'zning shakli va o'zgarishini yoki so'zning gap tarkibidagi vazifasini yetakchi omil sifatida baholashadi. Ta'kidlash o'rinliki, so'z turkumlarini belgilashda antik tilshunoslikda, asosan, semantik mezonlarga tayanib ish ko'rilgan. Morfologik va sintaktik xususiyatlar esa qo'shimcha – ikkilamchi, ya'ni so'zning ma'no xususiyatidan kelib chiqadigan belgi sifatida qabul qilingan [3;5;6].

Professor J.Eltazarov rahbarligida yuzaga kelgan A.Botirovaning "O'zbek tilida so'z turkumlarining birlamchi va ikkilamchi vazifasining funksional-sintaktik tahlili" nomli dissertatsiyasida lug'at qatlamidagi ayrim so'zlarning ikki paradigma (so'z turkumi)dan ham o'rin egallay olishi (oraliq so'z ekanligi) so'zlarni turkumlashda uch asosli mezonlarga soya solishi haqida haqli shunday fikr kuzatiladi: "Bu mezonlar tilning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyoti kesimida so'zning rivoji muammosi bilan bir tomondan, so'zlarning polifunksionallik xususiyatlari bilan ikkinchi tomondan bog'lanib ketadi. Boshqacha aytganda, diaxronik jihatdan ayrim so'zlarning o'z turkumlarini tark etib, boshqa turkumlarga ko'chishi hodisasi bilan birga, tilning muayyan bir sinxronik holatida kamida ikki paradigmaga kirish imkoniyatining saqlanib turishi bu mezonlarning har doim ham birday amal qila olmasligini ko'rsatadi. Chunki til dalillari so'zni turkumlarga aratishning semantik, sintaktik, morfologik mezonlarni istalgan so'zni biror turkumga kiritish uchun yetarli bo'lavermaydi" [2,7]. Bundan xulosa chiqadiki, so'z turkumlari va ularni farqlash bilan boG'liq muammolarning yuzaga kela borishiga ba'zida tilning ijtimoiyligi ham sabab bo'ladi. Umuman, tining ijtimoiyligi evazi o'laroq ayrim so'zlar polifunksionallik kasb eta boradi. Bu esa ularda ikki va undan ortiq paradigmada ham o'rin topa olish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Lekin so'zdagi polifunksionallik doim ham bir turkumdagi so'zni boshqa turkumga o'tib ketishiga yo'l ochavermaydi.

Polifunksionallik, ya'ni bu kabi so'zlarning so'z turkumlariga munosabati masalasida fanda uzoq yillardan beri ikki xil qarash mavjud. Ayrim tadqiqotchilar bu borada: "Bir so'z turkumi vazifasida ikkinchisining kelishi bu so'zning bora-bora tamoman boshqasiga o'tib olishi, ya'ni boshqa turkumga aylanishi bilan tugashi"ni ta'kidlasalar [4,27], boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra "barcha so'zlarning gapda funksional o'zgarish jarayoni doimo bir so'z turkumining, albatta, boshqasiga aylanishi bilan tugallanganda edi so'z turkumlari o'z barqarorligini allaqachon yo'qotgan bo'lib, bugungi kunda tilshunoslikda so'z turkumlari tushunchasi va u bilan bog'liq terminlar ham bo'lmas edi [7,210]". Keyingi fikrga qo'shilgan holda ayta olamizki, albatta, nutqiy kontekst so'zlarni turkumlash uchun asos bo'la olmaydi, ya'ni til sathi qonuniylari bilan hisoblashish so'zlarni turkumlashdagi chalkashliklarga bir qadar yechim bo'la oladi. To'g'ri, ayrim so'zlarning polifunksionallik xususiyati bu so'zda bora-bora ikki va undan ortiq paradigmada ham o'rin topa olish imkoniyatini yaratgan.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da morfologik belgisi ham ot, ham sifat tarzida ko'rsatilgan bir qator so'zlar uchraydi [9;10;11;12;13]. Bunday so'zlarni ikkiga bo'lib tasniflash mumkin:

Birinchi guruh so'zlari: *alomat, aqiq, aravakash, aybdor, aylana, asl, barxit, baxmal, bejama, biofizik, boG'dor, brezent, buqalamun, buyurtma, dabba (I), detektiv, dilbar, do'ng, dolzarb, dono, elektrik, haqiq, ganchkor, gulnor, ideal, intellektual, issiq, ittifoq, jonon, jul, kasal, katolik, metin, nam, nasroniy, odamiy, omixta, oval, pana, patak, pakar, par, pardozchi, paytavaquloq, qabohat, qadim, qavariq, qiltiriq, qiya, qo'shni, quroq, quyi, rohatbadan, rohatijon, royish, savag'ich (II), savsar, saxtiyon, sement, sovuq, sur (III), tirishiq, titroq, tomizg'i, vayrona, vertikal, xaroba, xushxat, yoqut, yosh (II), zarg'aldoq, zarhal, zenit, zo'r, shamshir, shodiyona, chambarak, chandiq, charchoq, chillaki, chin (I), chiqiq. Ikkinchi guruh so'zlari: binafsha, bo'lak, bo'rtma, bo'z, dildor, diqqat, gajak, hayot, mangulik, namat, nayza, paxta, paxtakor, qaltiroq, qum, talab, zaxob, o'rta, charm, cho'yan.*

Birinchi guruh so'zlari lug'atda dastlabki ma'no (birlamchi vazifa) da ot, undan keyingi ma'no (ikkilamchi vazifa) da sifat (*sft.*) tarzida keltiriladi va izohlanadi. Ikkinchi guruh so'zlari lug'atda dastlabki ma'noda predmetlik tabiatiga ko'ra izohlansa-da, turkumlik belgisi (*or*) ko'rsatilmaydi, ikkinchi va undan keyingi izohlardagina sifat (*sft.*) eknligi bo'rttirilib izohlanadi.

Tadqiqotimiz obyekti birinchi guruh so'zari bo'lgani bois shu so'zlardan ayrim misollar keltirib o'tamiz:

BUYURTMA 1 *ot* Bir narsa yasab, tayyorlab, ishlab berish haqidagi topshiriq, talab. Buyurtma bermoq. Buyurtma qabul qilmoq. *Toshkentda katta konsert zalining foyesini bezashda katta buyurtma ham unga topshirildi. "Yoshlik". Ofitsiantka buyurtma olgani keldi. P.Qodirov, Uch ildiz.*

2 *sft.* Topshiriq asosida tayyorlanadigan; buyurtirilgan. Buyurtma etik. *Qunduzning onasi azondan turib, nari-beri hovlilarni supurib, buyurtma toppilarni tikishga o'tirdi. Oydin, Bechora.*

DO'NG 1 *ot* Yerning yoki biror narsaning birmuncha baland ko'tarilgan joyi; tepalik. *O'g'ri – tun oshguncha, bo'ri – do'ng oshguncha. (Maqol) U do'ngga, bu do'ngga chiqib qaradi, ukasining qaysi tarafga ketganini bilmadi. "Qunduz bilan Yulduz".*

2. *sft.* Bo'rtib chiqqan, ko'tarilgan, do'mpaygan, qappaygan. Do'ng yer, Do'ng joy. Do'ng peshona, Do'ng qishloq. *Qo'chqor bo'lar qozining peshonasi do'ng bo'lar. (Maqol) Do'ng yerga o'tirib, odatdagidek yana daryoga tikildi. Mirmuhsin, Temur Malik.*

Ot-sifat oralig'idagi so'zlarning lug'atdagi turkumlik belgisini ko'rsatishda luG'at tuzuvchilar, odatda, semantik hamda sintaktik tamoyilga asoslanilganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur holat ot-sifat oralig'ida tasniflanadigan bir qator birliklarda uchraydi. Kuzatamiz:

AQIQ [a. – qizil rangli qimmatbaho tosh] 1 *ot* Turli rangli qimmatbaho tosh; haqiq (Zeb-ziynat buyumlariga ishlatiladi). *Qozikalon sandiqlarni ochib ko'rsatdi: ba'zida olmos, yoqut, aqiq, zumrad va marvarid.. ba'zilarida zeb-ziynatlar to'la edi. Ayniy, Doxunda.*

2 *kochma sft.* Shu tosh rangiga o'xshash rangli. *Xolingga mahliyo ko'p, ko'rgach aqiq labingni. Sh.Shomuhamedov, Odam borki.*

TITROQ. 1 *ot* Sovuqdan, qo'rquvdan hayajondan yoki damonsizlik, kasallik va sh.k. dan yuzaga keladigan g'ayrushuriy harakat, qaltiroq. *[Siddiqjonning] telegramma qog'ozini tutib turgan qo'li titradi. Bu titroq asta-sekin butun vujudini qamrab oldi. E.Usmonov, Ko'ngil.*

2 *sft.* Titrab, qaltirab turdigan, titraydigan, titroqli; qaltiroq. Titroq qo'l. Titroq oyoq. *Muhammadjon uning titroq lablariga suqlanib qaradi-yu, lekin jur'at etolmay, qo'lidan cho'pillatib o'pdi. P.Qodirov, "Uch ildiz".*

Bundan ko'rinadiki, so'zda qo'shimcha ma'noning yuzaga kela borishi (aqiq so'zi misolida) shu so'zning semantik-funksional taraqqiyoti (polifunksionallik)ka olib borsa, polifunksionallik esa (titroq so'zi misolida) omonimlikka yo'l ochadi.

Ko'pgina ishlarda predmet-belgi ma'noli oraliq so'zlardagi bu kabi ma'no-ifoda ulardagi mazkur ma'noning "tug'ma" yoki "orttirilganligi" bilan bog'liq holda tasnif etiladi. Biri (masalan, predmetlik) ning pasayishi ikkinchisi (belgi-xususiyat) ning kuchayishiga sharoit tug'diradi. Ba'zida buning teskarisi ham namoyon bo'ladi.

Aytish mumkinki, predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolarining farqlanishi (muayyan bir so'zning ot yoki sifatga tegishliligi) da leksik (semantik) va sintaktik tamoyillar ustunlik qiladi [14,18], albatta. Bu O'TILdagi ot-sifat oraliq so'zlari tasnifida ham yaqqol ko'rinadi.

Xullas, ot-sifat oraliq so'zlarning lug'atdagi ifodasi, ot hamda sifatlikka munosabati borasida quyidagi fikrlarni aytish mumkin:

a) o'zbek tilshunosligida oraliq so'z turkumlari va ular bilan bog'liq nazariy fikrlar yetarlicha aytilgan bo'lsa-da, oraliq so'zlarning lug'atlardagi ifodasi, lug'atda so'z turkumlikka munosabati masalasi bo'yicha oz fikrlar mavjud.

b) o'zbek tilshunosligida ot (predmetlik) va sifat (belgi-xususiyat) ma'nolarining o'zaro munosabati otlashish, sifatlashish, ravishlashish va h.k. doirasida ancha o'rganildi, lekin so'zlarni

turkumlash/kategoriyalashda til va nutq hodisasini farqlash (lisoniy birliklardan nutqiy birliklarni farqlash)ga doim ham tadrijiy ahamiyat qaratilmadi, shu bois so'zlarni turkumlashda bir qator ziddiyatlar, bir-birini inkor etuvchi fikrlar paydo bo'ldi.

d) o'zbek tilshunosligida so'zlarning polifunksionaligi, omonimligi, bular natijasida so'z ma'nosi yoki ma'nolaridan biri bilan bir turkumdan ikkinchisiga o'tish hollari, so'z turkumlarining bir-biri vazifasini bajarib turishi va h.k.lar so'zlarni turkumlashda mushkulliklar tug'dirishi mumkin, bu esa tadqiqotchilardan alohida kuzatuvni talab etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. –Т.: Мухаррир, 2010.
2. Ботирова А.Э. Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи ва иккиламчи вазифасининг функционал-синтактик таҳлили: Филол.фанлари номзоди... дис. –Қариш, 2018.
3. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақида лингвистик назариялар. Монография. – Самарқанд, 1996.
4. Фузаилов С. Ўзбек тилида равиш ва унинг сифат билан муносабати // Совет мактаби. – Тошкент, 1956. №1. – Б. 25-29.
5. Потенция А.А. Из записок по русской грамматике. Об изменении значения и заменах существительного. Т. III. – М.: Просвещение, 1968.
6. Сунник О.П. Общая теория частей речи. –М. –Л., 1968.
7. Хўжаев Т. "Яхши" типдаги сўзларнинг гапда ҳол вазифасида қўлланишига доир// А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг асарлари. Янги серия. -№ 102. – Самарқанд, 1960.
8. Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.: Фан, 1975.
9. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2006.
10. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2006.
11. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 3-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2007.
12. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 4-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.
13. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.
14. Ширинова Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Фил. фан. номз...дис. автореф. – Т., 2010.